XALQ DEPUTATLARI BEKTEMIR TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

Toshkent 100158, X.Boyqaro ko‘chasi, 2-uy. Tel.: (71) 295-02-46, Faks: (71) 231-65-25. www.bektemir.uz

2024 - yil 30 - yanvar II-86-12-14-198-K/24 Bektemir tuman hokimligi

Xalq deputatlari Bektemir tuman Kengashining 2023-yil 30-dekabrdagi II-85-178-14-198-K/23-sonli qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan hamda xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi VI-95-278-14-0-K/23-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, xalq deputatlari Bektemir tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. Xalq deputatlari Bektemir tuman Kengashining 2023-yil 30-dekabrdagi “2024-yil uchun Bektemir tuman mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi II-85-178-14-198-K/23-sonli qarorining 5-bandi, b-punkti quyidagi yangi tahrirda bayon etilsin;

b) Quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar Toshkent shahar mahalliy byudjeti hamda tumanlar mahalliy byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘ini teng ulushlarda taqsimlash.

2. Xalq deputatlari Bektemir tuman Kengashining 2023-yil 30-dekabrdagi “2024-yil uchun Bektemir tuman mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi II-85-178-14-198-K/23-sonli qarorining 1-ilovasi, 1-bandidagi “Jismoniy shaxslarning daromad solig‘i” so‘zlari “Yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i” so‘zlariga o‘zgartirilsin.

3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Bektemir tuman Kengashi raisi o‘rinbosari D.Saidov zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Bektemir tuman Kengashi raisi o'rinbosari **D.Saidov**